

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”
ADTI rektori **M. M. Azizimov**
“ 2025 yil



**“BOLALAR KASALLIKLARI PROPEDEVTIKASI”
FANING O`QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi: 910000 -Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishlari: 60910200-Davolash ishi

Andijon - 2025 yil

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar	
BKP15-606	2025-2026	5-6	6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Xaftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek/rus/ingliz		3	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	90	90	180
2	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanning o'qitishdan maqsad - talabalarda turli yoshdagi sog'lom va bemor bolalar va ularning ota-onasi bilan muloqat qilish, bolalarni tekshirish, jismoniy monitoring o'tkazish, bolalik yoshida ko'proq uchrovchi kasalliklarni tashxislash va laborator ko'rsatkichlarni taxlil qilish, profilaktika choralari belgilash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> – bolalardagi a'zo va tizimlarning anatomik-fiziologik xususiyatlarini o'rgatish; – sog'lom va bemor bolalar va ularning ota-onasi bilan muloqot qilishni va anamnez yig'ishni o'rgatish; – bolalik davrida ko'p uchraydigan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezini, klinikasi va qiyosiy tashhisoti haqida ma'lumot berish; – turli kasalliklardagi zamonaviy laborator va instrumental tekshiruv natijalarini taxlil qilishga o'rgatish; – bolalik davrlarida ko'p uchraydigan kasalliklarning profilaktikasini o'rgatish; – aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishga o'rgatish. <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;"><i>V semestr</i></p> <p>1-mavzu. Bolalar kasalliklari propedevtikasi faniga kirish. Pediatriya tarixi. Bolalik davrlarining xarakteristikasi.</p> <p>1-mavzu. Sog'lom bolalarni ovqatlantirish. 1 yoshgacha va 1 yoshdan katta bolalarni ovqatlantirish tamoyillari.</p> <p>3-mavzu. Bolalarni jismoniy rivojlanishi. Bolalarni jismoniy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. JSST tomonidan ishlab chiqarilgan besh yoshgacha</p>			

bolalarni o`shish va rivojlanish standartlari va o`shish hamda rivojlanish egrichiziqlari bo`yicha baholash. “Biologik akseleratsiya” haqida tushuncha. Bolalar jismoniy rivojlanishni buzilish semiotikasi (oqsil-energetik yetishmovchiligi, paratrofiya, semizlik, gigantizm, nanizm).

4-mavzu. Bolalarni asab-ruhiy rivojlanishi. Markaziy asab tizimining anatomo-fiziologik hususiyatlari. Asab ruhiy tizimini baholash mezonlari. Bolani aqliy va ruhiy rivojlanishi buzilishida uchraydigan kasalliklar semiotikasi (meningial va ensefalitik sindromlar, oligofreniya)

5-mavzu. Bolalarda teri va teri osti yog` qatlami va asosiy jarohatlanishlari semiotikasi. Bolalarda teri, teri osti yog` qavatini morfologik va funksional hususiyatlari. Teridagi bezlar, soch va tirnoqlarning rivojlanishi, ularning funksional faoliyatini hususiyatlari. Bolalarda teri, teri osti yog` qavatini jarohatlanish semiotikasi va sindromlari: OEE, ortiqcha vazn, semizlik, sklerema, skleredema.

6-mavzu. Bolalarda raxit kasalligi. Spazmofiliya. Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi.

VI semestr

7-mavzu. Bolalar nafas olish tizimi va jarohatlanish semiotikasi

Nafas tizimi kasalliklarini asosiy sindromlari. Nafas yo`llari obstruksiyasi sindromi. Nafas yetishmovchilik sindromi darajalari. “Bolalar kasalliklarini integrallashgan usulda olib borish” (BKIUOB) dasturi metodikasi asosida nafas olish sonini hisoblash, nafas yetishmovchiligini aniqlash va sharhlash.

8-mavzu. Bolalarda yurak tug`ma nuqsonlari. Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi.

9-mavzu. Tanqislik anemiyalari (temir yetishmovchiligi, oqsil yetishmovchiligi, vitaminlar yetishmovchiligi). Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari va profilaktika chora tadbirlari.

10-mavzu. Bolalar hazm qilish tizimi anatomo-fiziologik hususiyatlari va jarohatlanish semiotikasi.

Bolalarda hazm tizimi anatomo-fiziologik hususiyatlari. Bolalarda uchraydigan hazm tizimi kasalliklari sindromi (o`tkir qorin, sariklik, malabsorbsiya, gastroenterokolit, jigar yetishmovchiligi) va semiotikasi. “Bolalar kasalliklarini integrallashgan usulda olib borish” (BKIUOB) dasturi metodikasi asosida diareya sindromini tashxislash, suvsizlanish darajasini aniqlash va regidratatsiya usullarini o`tkazish.

11-mavzu. Bolalar siydik hosil qilish va siydik chiqarish a`zolari anatomo-fiziologik hususiyatlari va jarohatlanish semiotikasi

Ayiruv organlari anatomo – fiziologik xususiyatlari Kasalliklar semiotikasi va sindromlari (siydik qoldig'i sindromi, buyrak yetishmovchiligi sindromi).

12-mavzu. Bolalikning turli davrlarida immunitet tizimining xususiyatlari. Immunitet tanqisligi. Vaktsinoprofilaktika.

(Bolalikning turli davrlarida immunitet tizimining tuzilishi va funksiyasining xususiyatlari. Milliy emlash taqvimini. Milliy emlash taqvimiga kiritilmagan vaktsinalar, epidemiologik ko'rsatkichlar bo'yicha bolalarni emlash. Emlashdan keyingi asoratlarni rivojlanish sabablari. Emlash uchun asosiy ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Vaktsina turlari).

Amaliy mashg'ulotlar.

V semestr

Fan bo'yicha mashg'ulotlar nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda quyidagi mavzular bo'yicha o'tkaziladi:

1	Amaliy mashg'ulot: Bolalar kasalliklari propedevtikasi faniga kirish, modulni maqsadi va vazifalari. Pediatriyada etika va deontologiya masalalari. Bolalikdavrlarining xarakteristikasi.
2	Amaliy mashg'ulot: Bemor bolalar xolatini umumiy baxolash. Anamnez yig'ish. Bolaning umumiy ko'rigi. Bemor bola xolati og'irlik darajasini baholashning klinik me'zonlari. Turli yoshdagi bolalar salomatligini kompleks baxolash. Pediatriyada salomatlik guruhlarini. Patologiyani aniqlash, zarur diagnostika tadbirlarini aniqlash uchun ota-onalarni (yoki qonuniy vakillarni) maqsadli so'roq qilish va bolani fizik tekshiruvdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish; Al-Farabi Kazakh National University. Infancy, Childhood and Youth (Pediatrics). Go'daklik, bolalik va Yoshlik (Pediatriya). №163
3	Amaliy mashg'ulot: Yangi tug'ilgan chaqaloqni jismoniy rivojlanishi va yetukligini baholash. Sog'lom yangi tug'ilgan va erta tug'ilgan chaqaloq, chaqaloq, bola va o'smirning holati va boshqaruvini baholash uchun anatomik va fiziologik xususiyatlar haqidagi bilimlarni qo'llash. Al-Farabi Kazakh National University. Infancy, Childhood and Youth (Pediatrics). Go'daklik, bolalik va Yoshlik (Pediatriya). №163
4	Amaliy mashg'ulot: Sog'lom bolalarni ovqatlantirish. Ko'krak suti bilan oziqlantirish (JSST dasturi). Ko'krak suti afzalliklari. Ko'krak suti bilan boqishning tamoyillari. Ko'krak suti bilan boqishga antenatal tayyorgarlik. Ko'krak bezi anatomiyasi. Laktatsiya jarayoni xususiyatlari. Gipogalaktiya va uni oldini olish choralari.
5	Amaliy mashg'ulot: Ko'krak suti bilan boqishga qat'iy va nisbiy

	ko`rsatmalar. Ko`krak sutining tarkibi. Ko`krakka tutishning qoidalari. Ko`krak suti berishning qoidalari. Ko`krak bilan boqishda ona va bola tomonidan bo`ladigan qiyinchiliklarda maslahat berish tamoyillari. Emizikli onalarniovqatlanish tartibi.
6	Amaliy mashg`ulot: Aralash va sun'iy ovqatlantirish. Onaga maslaxat berish. Qo`shimcha ovqatlantirish. Bir yoshdan 2 yoshgacha bolalarni ovqatlantirish. Ovqatlanish ratsionini tuzish.
7	Amaliy mashg`ulot: Bolalarni jismoniy rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari. JSST tomonidan ishlab chiqarilgan besh yoshgacha bolalarni o`shish va rivojlanish standartlari va grafiklari. Bolaning to'g'ri jismoniy va aqliy rivojlanishini ta'minlash uchun ovqatlanish va bolalarni parvarish qilish bo'yicha bilimlarni, shuningdek profilaktika choralarini (shu jumladan immunoprofilaktikani) qo'llash; Al-Farabi Kazakh National University. Infancy, Childhood and Youth (Pediatrics). Go'daklik, bolalik va Yoshlik (Pediatriya). №163
8	Amaliy mashg`ulot: Bolalar jismoniy rivojlanishni buzilish semiotikasi.
9	Amaliy mashg`ulot: Oqsil-energetik yetishmovchiligi va semizlik. Ovqatlanish prinsiplari.
10	Ma'ruza-4. Bolalarni asab-ruhiy rivojlanishi. Markaziy asab tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Asab ruhiy tizimini baholash mezonlari. Bolani aqliy va ruhiy rivojlanishi buzilishida uchraydigan kasalliklar semiotikasi (meningial va ensefalitik sindromlar, oligofreniya)
11	Amaliy mashg`ulot: Bolani aqliy va ruhiy rivojlanishi buzilishida uchraydigan kasalliklar semiotikasi.
12	Amaliy mashg`ulot: Bolalarda teri, teri osti yog' qavatini morfologik va funksional xususiyatlari.
13	Amaliy mashg`ulot: Bolalarda teri, teri osti yog' qavatini jarohatlanish semiotikasi. Diatezlar. Etiologiya, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi va profilaktikasi.
14	Amaliy mashg`ulot: Bolalarda suyak-mushak tizimini anatomo-fiziologik xususiyatlari.
15	Amaliy mashg`ulot: Suyak – mushak tizimining asosiy kasalliklari

	semiotikasi. Raxit va spazmofiliya kasalligi. Etiologiya, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi va profilaktikasi.
1	Amaliy mashg`ulot: Bolalarda nafas olish tizimining yoshiga ko'ra anatomo-fiziologik xususiyatlari. Tashqi nafas faoliyatini baholash usullari va me'zonlari.
2	Amaliy mashg`ulot: Nafas tizimi kasalliklarini asosiy semiotikasi. Bronxitlar. Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi va profilaktikasi.
3	Amaliy mashg`ulot: Qon aylanish tizimining anatomo-fiziologik hususiyatlari. Homila ichi qon aylanishi xususiyatlari. Tekshirish usullari. O'zgarishlar semiotikasi.
4	Amaliy mashg`ulot: Bolalarda yurak tug'ma nuqsonlari. Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi.
5	Amaliy mashg`ulot: Yurak tug'ma nuqsonlari. Gemodinamik o'zgarishlar. Bolalarda EKGni yoshga bog'liq hususiyatlari.
6	Amaliy mashg`ulot: Qon xosil qilish tizimining anatomo-fiziologik hususiyatlari. Turli yoshdagi bolalar periferik qonining normativlari.
7	Amaliy mashg`ulot: Qon xosil qilish tizimining o'zgarishlari semiotikasi.
8	Amaliy mashg`ulot: Tanqislik anemiyalari. Tanqislik anemiyalari (temir yetishmovchiligi, oqsil yetishmovchiligi, vitaminlar yetishmovchiligi). Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari va profilaktika chora tadbirlari.
9	Amaliy mashg`ulot: Oshqozon-ichak tizimining anatomo-fiziologik hususiyatlari.
10	Amaliy mashg`ulot: Bir yoshgacha bolalarda hazm tizimini jarohatlanish semiotikasi va sindromlari (BKIJOB - Diareya). Bir yoshdan katta bolalarda hazm tizimini jarohatlanish semiotikasi va sindromlari
11	Amaliy mashg`ulot: Oshqozon-ichak tizimining funksional o'zgarishlari. Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi.
12	Amaliy mashg`ulot: Siydik hosil qilish va chiqarish tizimining anatomo-fiziologik hususiyatlari, tekshirish usullari. Siydik tahlillari interpretatsiyasi.
13	Amaliy mashg`ulot: Siydik hosil qilish va chiqarish tizimining jarohatlanish semiotikasi. Proksimal va distal kanalchalarni jarohatlanish

	sindromlari. Siydik yo'llari infeksiyasi. Pielonefritlar. Etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davosi.
14	Amaliy mashg'ulot: Bolalikning turli davrlarida immunitet tizimining xususiyatlari. Immunitet tanqisligi.
15	Amaliy mashg'ulot: Vaktsinoprofilaktika. Milliy emlash taqvimini. Emlashdan keyingi asoratlarni rivojlanish sabablari. Emlash uchun asosiy ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Emlash qoidalari. Kazan Federal Universiteti Meditsina fakultetining Pediatriya fanining ishchi o'quv dasturidan.

Amaliy mashg'ulotlar multimediyaga qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

V semestr

1. Ko'krak bilan ovqatlantirishni zamonaviy tamoyillari.
2. Sun'iy ovqatlantirish to'g'risida tushuncha.
3. Aralash ovqatlantirish to'g'risida tushuncha. Ustama ovqat.
4. Bir yoshdan katta bolalarni ovqatlantirish xususiyatlari.
5. Bolalar muassasalarida ovqatlantirish tamoyillari.
6. Tez-tez kasallanuvchi bolalar.
7. Akseleratsiya.
8. Bolalarni chiniqtirish usullari.
9. Dizembriogenez stigmatalari.
10. Bolalarda disbakteriozlar.
11. Gipo va avitaminozlar.
12. Bolalarda gijja invaziyasi.
13. Bolalarda enurez.
14. Bolalarda orqa miya anatom – fiziologik xususiyatlari. Orqa miya suyuqligining bola yoshiga mansub tarkibi.
15. Bolalarda bosh miyaning morfologik va funksional xususiyatlari. Tug'ilgandan keyin markaziy asab tizimining o'sishi va differensirovkasi: neyronlar differensirovkasi, mielinizatsiya jarayoni, asab tizimining xar xil

bo`limlarini rivojlanishi.

VI semestr

1. Bolalarda immun tizimning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Raxitsimon kasalliklar.
3. Gipo va aplastik anemiyalar.
4. Har xil yoshdagi bolalarda gemogramma.
5. Yurakning o'tkazuvchi tizimi hususiyatlari, qon aylanishini nerv tizimi tomonidan boshqarilishi, yurak faoliyatini boshqarishda adashgan va simpatik nerv tonusi nisbati.
6. Bola rivojlanishida yurak xajmini o'zgarishi, yurak bo'shlig'i kengligi bilan qon tomirlar nisbati, ularning gemodinamik ko'rsatkichlarning ahamiyati.
7. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda EKG ni o'ziga xos hususiyatlari.
8. Pilorospazm va pilorostenoz.
9. Funktsional qabziyat.
10. O't yo'llari diskineziyasi.
11. Ichaklar biotsenozi haqida tushuncha.
12. Bolalarda surunkali infeksiya o'choqlari.
13. Bolalarda siydik ajratish tizimi nuqsonlari.
14. Alport sindromi.
15. Zimnitskiy, Addis-Kakovskiy, Nechiporenko, Amburje usullari bo'yicha laborator tekshirishlarini taxlili.

Bolalar kasalliklari moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;
- vaziyatli va muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real vaziyatlar va vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

3

V. Ta'lim natijalari/kasbiy kompetensiyalari.

Talaba semestr yakunida:

- bolalardagi a'zo va sistemalarning anatomik-fiziologik xususiyatlari;

- bolalik davrida ko'p uchraydigan kasalliklarning etiologiyasi,
- patogenezi, klinikasi va differensial tashxisoti;
- bolalik davrlari kasalliklarini davolash prinsiplari;
- bolalik davrlarida ko'p uchraydigan kasalliklarning profilaktikasi;
- tez-tez kasallanuvchi bolalarni rehabilitatsiya va dispanserizatsiya qilish to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi kerak.**
- Bolalik davrida ko'p uchraydigan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va qiyosiy tashhisi, laborator ko'rsatkichlari, bolalar kasalliklarini davolash tamoyillari, kasalliklarni oldini olish yo'llarini;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- kasalliklarning asosiy klinik, laborator va instrumental mezonlarini aniqlashni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
- kasalliklarning asosiy klinik, laborator va instrumental mezonlarini aniqlash;
- bolalarda antropometriya (tana vaznini, buy uzunligini, bosh, ko'krak qafasi, yelka aylanalari) ni o'tkazish;
- bolalar va usmirlarda jismoniy va asab ruxiy rivojlanishni baxolashni zamonaviy usullari,
- Bolalarni teri, teri osti yog qavatini (terini umumiy ko'rikdan o'tkazish, elastikligi, namligi, xaroratini, yumshok to'qimalar turgorini, teri osti yog qavati qalinligini, dermografizm, qon-tomirlar mo'rtligini aniqlash: bolgacha, chimchilash, tasma - Qonchalovskiy-Leede simptomlarini aniqlash;
- bolalarni suyak-mushak tizimini ko'rikdan o'tkazish, bosh suyagi palpatsiyasi, raxitik tasbexlar, bilakuzuklar, marvarid iplarini palpator aniqlash, epigastral burchakni, "tizza qopg'ogini chayqalish", flyuktuatsiya simptomlarini, mushaklar kuchi, tonusini aniqlash, traksiya, qaytalama simptomlarini aniqlash;
- bolalarni nafas tizimini ko'rikdan o'tkazish, palpatsiya: ovoz dirillashi, ko'krak qafasi elastikligi va rezistentligi, og'riqli nuqtalar, teri burmalari qalinligini aniqlash;
- bolalarni nafas tizimini perkussiyasi: solishtirma, topografik o'pkani pastki chegaralarini, o'pka ekskursiyasini ; auskultatsiya: bronxial, vezikulyar nafas eshitish soxalarini aniqlash, tashqi nafasni funksional tekshirish usullari: spirometriya, pikfloumetriya;
- bolalarni yurak qon-tomir tizimini ko'rikdan o'tkazish, palpatsiya: puls,

	<p>yurak uchi turtkisi, yurak turtkisi; perkussiya: yurakni nisbiy va absolyut chegaralarini, tomirlar tutami kengligini aniqlash;</p> <ul style="list-style-type: none"> • yurakni ko`ndalang kesimini; auskultatsiya: yurak tonlari eshitish nuqtalari, katta qon-tomirlar - son arteriyasini, arterial bosimni o`lchash, EKG o'tkazish; • bolalarni xazm tizimini ko`rikdan o`tkazish, palpatsiya: qorinni yuzaki, Obrazsov-Strajesko usuli bo`yicha yo`g`on ichak, jigarni, mezenterial limfa tugunlarni, og`riqli nuqtalarni, Merfi, Myussi, Ortner-Grekov, Mendel, Boas, flyuktuatsiya simptomlarini; perkussiya: kichik yoshdagi bolalarda jigarni, katta yoshdagi bolalarda Kurlov usuli bo`yicha jigarni o`lchamini aniqlash, • bolalarni siydik xosil qilish va ajratish tizimini ko`rikdan o`tkazish, palpatsiya: buyrakni Obrazsov-Strajesko, Gyuyon, Botkin usuli bo`yicha, siydik qopini, siydik yo`li og`riqli nuqtalarini aniqlash, • perkussiya: siydik qopini, Pasternatskiy simptomini aniqlash, • laborator tekshiruvlar interpretatsiyasi (qon, siydik va axlat taxlillari) ni o`tkazish kabi amaliy ko`nikmalarni egallashi kerak. <p>Ushbu amaliy ko`nikmalarni bajarishda va o`zlashtirishda Germaniyaning “Lecturio GmbH” meditsina saytidan foydalanish tavsiya etiladi.</p>
<p>4</p>	<p>VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma`ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tezkor savol-javoblar; • guruxlarda ishlash; • jamoa bo`lib ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • dalolatnomalar yozish;
<p>5</p>	<p>VII.Kreditlarni olish uchun talablar.</p> <p>Bolalar kasalliklari propedevtikasi moduli bo`yicha baholash mezonlari haqidagi ma`lumot modul bo`yicha birinchi mashg`ulotda talabalarga e`lon qilinadi.</p> <p>Talabalarning modul bo`yicha o`zlashtirish darajasining Davlat ta`lim standartlariga muvofiqligini ta`minlash uchun quyidagi nazorat turlari o`tkaziladi:</p> <p>joriy nazorat (JN); yakuniy nazorat (YaN);</p> <p>Modul bo`yicha talabaning semestr (o`quv yili) davomidagi o`zlashtirish ko`rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo`yicha</p>

quyidagicha taqsimlanadi:

No	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN)	100	6,0
	JAMI	100	6,0

Modulga ajratilgan 6.0 kreditni talaba JN davomida V va VI semester davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN) da talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Bolalar kasalliklari propedevtikasi moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. Joriy nazorat ta'lim oluvchi tomonidan modul mavzusi mazmunini o'zlashtirganlik darajasini baholashga qaratiladi, shuningdek, o'quv materialini ko'nsstruktiv ravishda sharhlash va tahlil qilish, modulga oid ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalar (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallash, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash, prezentatsiyalar tayyorlash va h. k. ni baholashga qaratiladi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o'qituvchi tomonidan talabaning JN og'zaki so'rov shaklidan olgan bali shu kunni o'zida o'quv jurnaliga qo'yiladi.

Talaba kreditni JN hisobiga yig'adi.

Fan bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	Bolalar kasalliklari propedevtikasi modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;	5	a'lo

			<p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy vamustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" -	Bolalar kasalliklari propedevtikasi modul dasturining barcha	4	yaxshi

		o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilinganasosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli</p>		
--	--	--	---	--	--

				<p>muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>Bolalar kasalliklari propedevtikasi modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va</p>			

			<p>yoʻnalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashgʻulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhlimuhokamalarda faol boʻlishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega boʻlishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qoʻpol kamchiliklar bilan	<p>davlat taʼlim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega boʻlishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni toʻgʻri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yoʻl qoʻyishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus koʻnikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul boʻyicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy koʻnikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan toʻliq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari boʻyicha qisman bilimga ega boʻlishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qoʻllay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>oʻqilayotgan modul boʻyicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yoʻnalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashgʻulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega boʻlishi lozim;</p>	3	Qoni qarli

55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil emas vahatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlardapedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
31-54	FX	"qoniqar-siz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar	2	Qoni qarsiz

		o'zlash-tirishi zarur	bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

YAKUNIY NAZORAT (YAN)

YAN VI-semestr yakunida o'tkaziladi. JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YAN ga kiritiladi. YAN da talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YAN modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng kafedrada og'zaki so'rov OSCE yoki yozma va test markazida test shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi.

YAN da 55 saralash ballini yig'a olmagan talaba YAN dano'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi, JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham).

Fanga oid o'quv materiallarni tayyorlashda **UNICEF va JSST** tashkilotlarining "Onalar va bolalar sog'ligini mustaxkamlash dasturi"ning o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi va quyidagi mavzular kiritildi:

1. «Bolalar kasalliklarini integrativ usulda olib borish»
2. Xavfsiz immunizasiya (JSST ko'rsatmalari va tavsiyalari)

Kazan Federal Universiteti Meditsina fakultetining Pediatriya fanining ishchi o'quv

dasturidan quyidagi amaliy mash'ulot mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi:

1. Bolalikning turli davrlarida immunitet tizimining xususiyatlari. Immunitet tanqisligi. Vaktsinoprofilaktika. Milliy emlash taqvimini. Emlashdan keyingi asoratlarni rivojlanish sabablari. Emlash uchun asosiy ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Vaktsina turlari).

Al-Farabi Kazakh National University. Infancy, Childhood and Youth (Pediatrics). Go'daklik, bolalik va Yoshlik (Pediatriya). №163 Pediatriya fanining ishchi o'quv dasturidan quyidagi amaliy mash'ulot mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi:

1. Patologiyani aniqlash, zarur diagnostika tadbirlarini aniqlash uchun ota-onalarni (yoki qonuniy vakillarni) maqsadli so'roq qilish va bolani fizik tekshiruvdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish

2. Sog'lom yangi tug'ilgan va erta tug'ilgan chaqaloq, chaqaloq, bola va o'smirning holati va boshqaruvini baholash uchun anatomik va fiziologik xususiyatlar haqidagi bilimlarni qo'llash

3. Bolaning to'g'ri jismoniy va aqliy rivojlanishini ta'minlash uchun ovqatlanish va bolalarni parvarish qilish bo'yicha bilimlarni, shuningdek profilaktika choralarini (shu jumladan immunoprofilaktikani) qo'llash;

6

Asosiy adabiyotlar

1. Navruzova Sh.I., Geppe N.A. Bolalar kasalliklari propedevtikasi. Darslik. 2019 y.
2. Ashurova D.T. Bolalar kasalliklari propedevtikasi. Darslik. Toshkent. 2018 y.
3. Ашурова Д.Т. Пропедевтика детских болезней. Учебник. Т. 2018 й.
4. Пропедевтика детских болезней. Калмыкова А.С. тахрири остида, 2018.
5. Daminov T.O., Xalmatova B.T., Boboeva O'R. Bolalar kasalliklari. Darslik. -To'shkent. Tafakkur Bo'stoni. 2013 й.
6. ДАМИНОВ Т.О., ХАЛМАТОВА Б.Т., БОБОЕВА У.Р. Детские болезни. Учебник. –Ташкент. Tafakkur Bo'stoni. 2013 г.

5.1. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Капитан Т.В. Пропедевтика детских болезней., М. 2006 г.
2. Мазурин А.В., Воронцов И.М., Пропедевтика детских болезней. 2 оэ издание Санкт. П. 2009.
3. Dauksh I.A., Muratxodjaeva A.V. va boshlalar. Bolalarda mineral

almashinuvning buzilishi (raxit, spazmofiliya, gipervitaminoz D), o`quv uslubiy qo`llanma, 2012 yil.

4. Беляева Л.М. Детская кардиология и нефрология – практическое руководство -Москва, ГЭОТАР, 2011 г
5. Bolalarga statsionar yordam ko`rsatish. Metodik qo`llanma.(UzSSV №225buyrug`i, 2013)
6. Игнатова М.С. Детская нефрология – руководство для врачей – Москва,ГЭОТАР, 2011 г
7. Кильдиярова Р.Р. Лабораторные и функциональные методы исследования в практике педиатрии – учебно-методическое пособие, -Москва., ГЭОТАР., 2012 г
8. Шабалов Н.П. Детские болезни. – Учебник, Москва., ГЭОТАР., 2010.
9. Баранов А.А. Детские болезни. - Учебник. - Москва, ГЭОТАР, 2009 г
10. Василевский И.В. Дифференциальная диагностика и терапия кашля у детей и подростков. – учебно-методическое пособие – Минск. БелМАПО, 2006 г
11. Xalmatova V.T., Bobomuratov T.A. Pediatriyada sindromal diagnostika. –o`quv qo`llanma, Toshkent, TTA bosmaxonasi, 2010 y
12. Nelson Textbook of Pediatrics, 20 editions. Robert M. Kliegman, Bonita Stanton, Joseph St. Geme., Elsevier, 2016.
13. Al-Farabi Kazakh National University. Infancy, Childhood and Youth (Pediatrics). №163 www.kaznu.kz.
14. Kazan Federal Universiteti Meditsina fakulteti Pediatriya fanidan ishchi o`quv dasturi -2022 y
15. Справочник врача-педиатра [Электронный ресурс] / Кильдиярова Р.Р., Колесникова М.Б. - М. : ГЭОТАР-Медиа, 2014. - <http://www.studmedlib.ru/book/ISBN9785970427996.html>

Кафедрада яратилган ўқув қўлланма, электрон дарслик ва монографиялар:

1. Abdullayeva M.E. Raхmanova U.X., Karimova A.A. Bolalar kasalliklari proprdevtikasi. – O`quv qullanma.-Toshkent.-2021 y.-317 b.
16. Nuritdinova G.T., Inakova B.B., Abdullayeva M.E. Yangi tug`ilgan Sog`lom va kasal chaqaloqlarni parvarish asoslari. O`quv qo`llanma, T.2020.
2. Нуритдинова Г.Т., Инакова Б.Б., Абдуллаева М.Э. Основы ухода за здоровыми и больными новорожденными детьми. Учебное

	<p>пособие, Т.2020</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Жураева М.А., Валиева М.Ю., Ганиева И.У., Ашуралиева М.А. Клиническая лабораторная диагностика. Учебник, Т. 2020 4. Абдуллаева М.Э. «Технология симуляционного обучения педиатрии». Электронное учебное пособие. Т. 2022 5. Abdullayeva M.E. Bolalarda kechadigan o`tkir holatlar va ularda shoshilinch yordam ko`rsatish. O`quv qo`llanma. Andijon 2023. 6. Xolmatova N.O., Nishonova D.V. Bolalarning jismoniy rivojlanishi. O`quv qo`llanma. Andijon 2023. 7. Абдуллаева М.Э. «Наглядная пропедевтика педиатрии в алгоритмах и рисунках. Андижан, 2025. <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Germaniyaning “Lecturio GmbH” meditsina sayti 2. www.ziyonet.uz 3. http://pubmed.com.Международный сайт медицинской литературы. 4. http://emedicine.com.Международный сайт медицинской литературы. 5. http://medscape.com.Международный сайт медицинской литературы. 6. http://elibrary.ru.Международный сайт электронной медицинской литературы. 7. http://uptodate.com.Российский сайт медицинской литературы. 8. http://ecim.org.Международный организационный сайт медицинской дискуссии. 9. http://cochrein.com Главная центральная библиотека Кохрейна 10. www.tma.uz 11. www.medlincs.ru 12. www.medbook.ru. 13. www.kaznu.kz. Al-Farabi Kazakh National University. Infancy, Childhood and Youth (Pediatrics). №163
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va muammolar uslubiy xay`ati tomonidan 27.08.2025 y da tasdiqlangan.
8	<p>Fan/modul uchun mas`ullar:</p> <p>Abdullayeva M.E. BKP va poliklinik pediatriya kafedrasini mudiri, dotsent</p> <p>Abdulxakova R.M. BKP va poliklinik pediatriya kafedrasini assistenti</p>
9	<p>Taqrizchi:</p> <p>Arzibekov A.G. «Pediatriya» kafedrasini mudiri, dotsent</p> <p>Ganiyeva M.Sh «Gospital pediatriya » kafedrasini mudiri, dotsent</p>